

## KORPORATIV TUZILMALARNING INNOVATSION SALOHIYATNI RIVOJLANTIRISHDA INSTITUTSIONAL MUHIT VA BOZOR RAQOBATNING KOMPLEMENTAR TA'SIRI

**Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich**

Namangan davlat texnika universiteti  
“Menejment” kafedrasini mudiri, professor  
E-mail: [mullabaev.bahtiyor@gmail.com](mailto:mullabaev.bahtiyor@gmail.com)

**Tojibayev Xurshidbek Muhiddin o'g'li**

Namangan davlat texnika universiteti magistranti  
E-mail: [tojibaev99@gmail.com](mailto:tojibaev99@gmail.com)

### Annotatsiya

Mazkur maqolada korporativ tuzilmalarning innovatsion salohiyatni rivojlantirishga ta'sir etuvchi institutsional muhit va bozor raqobatining komplementar xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda institutsional sifat, raqobat intensivligi hamda korporativ innovatsion faoliyat o'rtasidagi sabab-oqibat bog'liqlari nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan. Innovatsion rivojlanishda transaksion xarajatlar, korporativ boshqaruv sifati va texnologik moslashuvchanlikning ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalari samarali institutsional tizim va sog'lom raqobat muhiti korporativ innovatsion salohiyatni oshirishning asosiy determinantlari ekanligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** korporativ tuzilmalar, innovatsion salohiyat, institutsional muhit, bozor raqobati, innovatsion rivojlanish, korporativ boshqaruv, transaksion xarajatlar, texnologik transformatsiya, raqobat ustunligi, institutsional iqtisodiyot.

### Аннотация

В данной статье анализируется комплементарное влияние институциональной среды и рыночной конкуренции на развитие инновационного потенциала корпоративных структур. Исследуются причинно-следственные связи между качеством институтов, интенсивностью конкуренции и инновационной активностью корпораций. Особое внимание уделено роли трансакционных издержек, качества корпоративного управления и технологической адаптивности в обеспечении инновационного развития. Результаты исследования показывают, что эффективная институциональная система и конкурентная рыночная среда выступают ключевыми детерминантами повышения инновационного потенциала корпоративных структур.

**Ключевые слова:** корпоративные структуры, инновационный потенциал, институциональная среда, рыночная конкуренция, инновационное развитие, корпоративное управление, трансакционные издержки, технологическая трансформация, конкурентные преимущества, институциональная экономика.

### Abstract

This article examines the complementary impact of the institutional environment and market competition on the development of innovative potential in corporate structures. The study explores the causal relationships between institutional quality, competition intensity, and corporate innovation activity. Particular attention is paid to

the role of transaction costs, corporate governance quality, and technological adaptability in fostering innovative development. The findings indicate that an effective institutional system and a competitive market environment are the key determinants of enhancing the innovative potential of corporate structures.

**Keywords:** corporate structures, innovative potential, institutional environment, market competition, innovative development, corporate governance, transaction costs, technological transformation, competitive advantage, institutional economics.

## KIRISH

Jahon iqtisodiyotida innovatsion rivojlanish korporativ tuzilmalarning uzoq muddatli raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omilga aylanmoqda. WIPO tomonidan eʼlon qilingan Global Innovation Index 2024 hisobotida innovatsion ekotizim samaradorligi 133 ta iqtisodiyot kesimida baholanib, institutlar sifati, bozor rivojlanganligi, biznes murakkabligi, bilim va texnologik natijalar innovatsion taraqqiyotning asosiy mezonlari sifatida qayd etilgan [1]. Bu holat korporativ innovatsion salohiyat faqat ichki resurslar, ilmiy-tadqiqot xarajatlari yoki texnologik modernizatsiya bilan emas, balki institutsional tartibotlar va bozordagi raqobat bosimi bilan ham bevosita bogʻliq ekanini koʻrsatadi.

Institutsional muhitning sifati korporatsiyalar uchun mulk huquqi himoyasi, shartnomaviy intizom, investitsion xavfsizlik, tartibga solish barqarorligi va transaksion xarajatlar darajasini belgilaydi. Agar institutlar zaif boʻlsa, innovatsion faoliyat yuqori tavakkalchilikka ega boʻladi, kapital uzoq muddatli ilmiy-tadqiqot loyihalariga emas, qisqa muddatli foyda beruvchi yoʻnalishlarga oqadi. OECD tadqiqotlarida ham raqobatni kuchaytiruvchi tartibga solish islohotlari firmalarni uzoq muddatda samaradorlik va innovatsion faollikni oshirishga majbur qilishi taʼkidlanadi [2]. Sogʻlom raqobat innovatsiyani ragʻbatlantiradi, kuchli institutlar esa ushbu ragʻbatni iqtisodiy natijaga aylantiradi.

Mavzuning dolzarbligi ayniqsa rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun yuqori. Chunki bunday mamlakatlarda korporativ tuzilmalar koʻpincha texnologik yangilanish, boshqaruv sifati, moliyalashtirish manbalari va bozor intizomi boʻyicha cheklovlarga duch keladi. Jahon bankining Oʻzbekiston boʻyicha 2025-yilgi iqtisodiy memorandumida mamlakatda xususiy sektor oʻsishini jadallashtirish uchun institutsional islohotlar, korxonalar, bank va energetika sektorini qayta tarkiblashtirish zarurligini koʻrsatadi [3]. Bu xulosa shuni anglatadiki, korporativ innovatsiya masalasi alohida texnologik muammo emas, balki kengroq institutsional va raqobat siyosati bilan bogʻliq tizimli masaladir.

Oʻzbekiston sharoitida mazkur yoʻnalish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biriga aylangan. Prezidentning 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son Farmoni bilan 2022-2026-yillarda Oʻzbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasi tasdiqlangan boʻlib, unda innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish, korxonalarda innovatsion faoliyatni ragʻbatlantirish vazifalari belgilangan [4]. 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmon bilan tasdiqlangan “Oʻzbekiston - 2030” strategiyasida Oʻzbekistonni Global Innovatsion Indeksda TOP-50 mamlakatlar qatoriga kiritish, amaliy tadqiqotlarga 4

trillion soʻm yoʻnaltirish, “korxonalar - oliygoh - ilmiy tashkilot” klaster tizimini joriy etish va 850 turdagi innovatsion mahsulot ishlab chiqarish vazifalari belgilangan [5].

Raqobat siyosati ham ushbu jarayonning ajralmas elementi hisoblanadi. 2023-yil 3-iyulda qabul qilingan yangi tahrirdagi “Raqobat toʻgʻrisida”gi OʻRQ-850-son Qonun tovar va moliya bozorlarida raqobatni cheklashga olib keluvchi harakatlarni nazorat qilish hamda ularga chek qoʻyishga qaratilgan [6]. Mazkur huquqiy asos korporativ subyektlarning monopolistik ustunlikka emas, balki innovatsion ustunlikka tayanib rivojlanishini taʼminlash uchun muhim institutsional shart-sharoit yaratadi.

Shu nuqtai nazardan, korporativ tuzilmalarda innovatsion salohiyatni rivojlantirishda institutsional muhit va bozor raqobatining komplementar taʼsirini oʻrganish nazariy hamda amaliy jihatdan muhimdir. Muammoning tub mohiyati shundaki, innovatsion salohiyat faqat korxonaning ichki imkoniyati emas; u huquqiy barqarorlik, raqobat bosimi, moliyaviy resurslarga kirish, ilmiy hamkorlik va bozor signallari bilan shakllanadigan murakkab iqtisodiy tizimdir. Agar institutsional muhit zaif boʻlsa, raqobat destruktiv tus oladi; agar raqobat yetarli boʻlmasa, kuchli institutlar ham korporatsiyalarni innovatsiyaga majbur qila olmaydi. Aynan shu sababli mazkur tadqiqotda institutsional sifat va bozor raqobatining birgalikdagi taʼsiri korporativ innovatsion salohiyatni rivojlantirishning asosiy mexanizmi sifatida qaraladi.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Korporativ tuzilmalarda innovatsion salohiyatni rivojlantirish masalasi zamonaviy iqtisodiy nazariyaning eng murakkab va koʻp qirrali yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu masala institutsional iqtisodiyot, raqobat nazariyasi, innovatsion menejment va korporativ strategiya kesishmasida shakllangan boʻlib, turli ilmiy maktablar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Xususan, innovatsion faoliyatning samaradorligi nafaqat korxonaning ichki resurslariga, balki tashqi institutsional tizim va bozordagi raqobat muhiti bilan bogʻliq omillarga ham bevosita bogʻliq ekanligi koʻplab tadqiqotlarda asoslab berilgan.

Institutsional iqtisodiyot nazariyasining asoschilaridan biri boʻlgan Duglas Nort iqtisodiy rivojlanishning asosiy determinantlaridan biri sifatida institutlar sifatini koʻrsatadi. Uning fikricha, samarali institutlar transaksion xarajatlarni kamaytiradi, investitsion xavfsizlikni oshiradi va innovatsiyalar uchun barqaror muhit yaratadi [6]. Nortning konsepsiyasi korporativ innovatsion salohiyatni shakllantirishda huquqiy tizim, mulk huquqi himoyasi va iqtisodiy erkinlik muhim omil ekanligini koʻrsatadi. Biroq muallifning yondashuvi koʻproq makroinstitutsional tahlilga qaratilgan boʻlib, korporativ darajadagi innovatsion mexanizmlar yetarlicha ochib berilmagan.

Maykl Porter esa raqobat va innovatsiya oʻrtasidagi bogʻliqlikni “Competitive Advantage of Nations” asarida chuqur asoslab beradi. Unga koʻra, kuchli raqobat muhiti korxonalarni innovatsion faoliyatni jadallashtirishga majbur qiladi hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi [7]. Porterning “olmos modeli”da talab sifati, ichki raqobat va qoʻllab-quvvatlovchi institutlar innovatsion ustunlikning asosiy manbalari sifatida talqin qilinadi. Ammo Porter modeli asosan rivojlangan iqtisodiyotlarga moslashtirilgan boʻlib, tranzitiv iqtisodiyotlar sharoitidagi institutsional nomukammalliklarni yetarli darajada hisobga olmaydi.

Jozef Shumpeter innovatsiyani iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayveri sifatida baholab, “ijodiy vayronkorlik” konsepsiyasini ilgari surgan [8]. Uning nazariyasiga ko‘ra, innovatsiyalar bozordagi eski texnologiyalar va biznes modellarni siqib chiqaradi. Shumpeter innovatsiyaning manbai sifatida tadbirkorlik faoliyatini ko‘rsatadi, biroq zamonaviy korporativ iqtisodiyot sharoitida innovatsion faoliyat ko‘proq yirik korporatsiyalar va institutsional tarmoqlar bilan bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Shu sababli Shumpeter modeli hozirgi global korporativ integratsiya sharoitida qo‘shimcha institutsional yondashuvlarni talab qiladi.

Richard Nelson va Sidney Winter evolyutsion iqtisodiyot nazariyasida korxonalarining innovatsion rivojlanishini “rutinalar” va texnologik moslashuv jarayoni orqali tushuntiradi [9]. Mualliflarning fikricha, innovatsion salohiyat uzoq muddatli tashkiliy tajriba va bilimlar akkumulyatsiyasi natijasida shakllanadi. Ushbu yondashuv korporativ innovatsion salohiyatning ichki mexanizmlarini chuqur yoritgan bo‘lsa-da, tashqi institutsional muhit va raqobat bosimining rolini ikkilamchi darajada qoldiradi.

Friman milliy innovatsion tizim konsepsiyasida davlat, ilmiy markazlar va biznes o‘rtasidagi hamkorlik innovatsion rivojlanishning asosiy institutsional mexanizmi ekanligini ta’kidlaydi [10]. Uning tadqiqotlari innovatsion salohiyat individual korxonalar emas, balki umumiy iqtisodiy tizim samaradorligiga bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Friman modeli davlatning yuqori koordinatsion rolga tayanganligi sababli, erkin raqobatning ta’sir mexanizmlarini yetarli darajada ochib bermaydi.

Pol Romerning endogen iqtisodiy o‘sish nazariyasi bilim va texnologiyalarni iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili sifatida talqin qiladi [11]. Romer innovatsiyalarni kapital va mehnatdan farqli ravishda cheklanmagan resurs sifatida ko‘rsatadi. Bu yondashuv korporativ innovatsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega. Biroq nazariya ko‘proq makroiqtisodiy o‘sishga yo‘naltirilgan bo‘lib, institutsional cheklovlarining amaliy ta’siri yetarlicha tahlil qilinmagan.

Uilyamson transaksion xarajatlar nazariyasida korporativ boshqaruv tizimi va institutlarning innovatsion samaradorlikka ta’sirini tahlil qiladi [12]. Muallifning fikricha, samarasiz institutsional tizimlar korxonalar xarajatlarini oshirib, innovatsion faoliyatni sekinlashtiradi. Ayniqsa, byurokratik to‘siqlar va huquqiy noaniqlik innovatsion investitsiyalarni kamaytiruvchi omillar sifatida baholanadi. Ushbu yondashuv korporativ innovatsion salohiyatni institutsional sifat bilan bog‘lashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kohen va Levinthal “absorptive capacity” nazariyasida korxonaning tashqi bilimlarni o‘zlashtirish qobiliyatini innovatsion salohiyatning markaziy elementi sifatida ko‘rsatadi [13]. Ularning tadqiqotiga ko‘ra, innovatsion faoliyat samaradorligi nafaqat yangi texnologiyalar yaratish, balki mavjud bilimlarni integratsiyalash imkoniyatiga ham bog‘liq. Mazkur yondashuv korporativ innovatsion rivojlanishda inson kapitali va tashkiliy bilimlarning rolini ochib beradi.

Tis, Pisano va Shuen tomonidan ishlab chiqilgan “dynamic capabilities” konsepsiyasi korxonalarining tez o‘zgaruvchan bozorlarga moslashuvchanligini innovatsion ustunlikning asosiy manbai sifatida talqin qiladi [14]. Mualliflar korporativ raqobatbardoshlikni resurslardan samarali foydalanish emas, balki ularni qayta konfiguratsiya qilish qobiliyati bilan izohlaydi. Ushbu nazariya raqobat muhiti va innovatsion strategiyalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntirishda muhim o‘rin tutadi.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan A. Vahobov va D. Toshmurodova innovatsion iqtisodiyotning institutsional asoslarini o‘rganib, O‘zbekistonda innovatsion infratuzilmaning rivojlanishi iqtisodiy liberallashtirish va raqobat muhiti bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi [15]. Mualliflar korporativ innovatsion faollikni oshirish uchun moliyaviy institutlar, ilmiy markazlar va xususiy sektor integratsiyasini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Biroq tadqiqotda korporativ darajadagi amaliy modellar yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Yuqoridagi ilmiy qarashlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, korporativ innovatsion salohiyatning shakllanishi ko‘p omilli va tizimli jarayon hisoblanadi. Aksariyat tadqiqotlarda institutsional muhit yoki raqobat muhiti alohida o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularning komplementar ta’siri yetarlicha kompleks tadqiq etilmagan. Ayniqsa, tranzitiv iqtisodiyotlar sharoitida institutlar sifati va bozor raqobati o‘rtasidagi muvozanat innovatsion rivojlanishning asosiy determinantiga aylanmoqda. Shu sababli mazkur tadqiqot korporativ tuzilmalarda innovatsion salohiyatni rivojlantirishda institutsional muhit va bozor raqobatining o‘zaro integratsiyalashgan ta’sir mexanizmlarini chuqur tahlil qilishga qaratiladi.

## **METODOLOGIYA**

Tadqiqot metodologiyasi korporativ tuzilmalarda innovatsion salohiyatni rivojlantirishga institutsional muhit va bozor raqobatining komplementar ta’sirini aniqlashga qaratildi. Unda tizimli yondashuv, institutsional tahlil, qiyosiy tahlil, sabab-oqibat bog‘liqligini aniqlash, abstraksiyalash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Institutsional muhit huquqiy barqarorlik, mulk huquqi himoyasi, tartibga solish sifati va transaksion xarajatlar orqali baholandi.

Bozor raqobati esa raqobat intensivligi, bozorga kirish to‘siqlari, monopolistik cheklovlar va innovatsion bosim ko‘rsatkichlari asosida tahlil qilindi. Tadqiqotda innovatsion salohiyat R&D xarajatlari, texnologik yangilanish, patent faolligi, innovatsion mahsulot ulushi va korporativ boshqaruv samaradorligi orqali izohlandi. Metodologik asos sifatida institutsional iqtisodiyot, raqobat nazariyasi va innovatsion rivojlanish konsepsiyalari integratsiyalashgan holda qo‘llanildi.

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

Ushbu bo‘limda Namangan viloyati va uning shahar-tumanlari misolida 2016-2025-yillar oralig‘ida korporativ tuzilmalarining innovatsion salohiyati, institutsional muhit sifati, bozor raqobati intensivligi hamda ushbu ikki omilning o‘zaro komplementar ta’siri tizimli ravishda jadval ko‘rinishida yoritiladi. Taqdim etilgan jadvallar hududlar kesimida innovatsion rivojlanish darajasini qiyoslash, yillar bo‘yicha dinamik o‘zgarishlarni kuzatish, iqtisodiy faollik va institutsional sharoitlar

oʻrtasidagi bogʻliqlikni koʻrsatish imkonini beradi. Shu bilan birga, jadvallar Namangan shahri, Namangan tumani, Mingbuloq, Kosonsoy, Norin, Pop, Toʻraqoʻrgʻon, Uychi, Uchqoʻrgʻon, Chortoq, Chust va Yangiqoʻrgʻon tumanlarida innovatsion salohiyatning shakllanishi bir xil surʼatda kechmayotganini aniqlash uchun empirik asos vazifasini bajaradi. Mazkur maʼlumotlar orqali hududiy tafovutlar, rivojlanish markazlari va nisbatan sust oʻsayotgan tumanlarning umumiy manzarasi ochib beriladi.

Boʻlimda keltirilgan umumiy maʼlumotlar korporativ innovatsion salohiyatning faqat korxonaning ichki moliyaviy yoki texnologik imkoniyatlari bilan belgilanmasligini, balki mahalliy institutsional muhit, raqobat bosimi, tadbirkorlik infratuzilmasi, sanoat bazasi, korxonalar zichligi va bozor signallari bilan bevosita bogʻliq ekanini asoslashga xizmat qiladi. Namangan viloyati sharoitida innovatsion rivojlanish jarayoni markaziy shahar va sanoatlashayotgan tumanlarda nisbatan faol, agrar yoki infratuzilmaviy imkoniyatlari cheklangan hududlarda esa sustroq kechishi mumkin. Shu sababli ushbu boʻlimda maʼlumotlar oddiy statistik tavsif sifatida emas, balki institutsional muhit va bozor raqobatining birgalikdagi taʼsirini baholashga qaratilgan ilmiy-analitik asos sifatida koʻrib chiqiladi.

### 1-jadval

#### Namangan viloyati shahar va tumanlarida korporativ innovatsion salohiyat indeksi<sup>1</sup>

Hududlar	Yillar									
	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Namangan shahri	42,1	45,3	48,8	52,4	55,6	59,8	64,2	68,7	72,5	76,4
Namangan tumani	27,4	29,1	31,5	34,2	36,7	39,6	42,1	45,3	48,0	51,2
Mingbuloq	21,3	22,6	24,0	25,8	27,2	29,4	31,5	33,8	36,1	38,4
Kosonsoy	25,8	27,4	29,6	31,9	34,1	36,8	39,5	42,0	44,6	47,3
Norin	20,7	21,9	23,2	24,7	26,5	28,0	30,2	32,1	34,4	36,6
Pop	29,6	31,4	33,9	36,8	39,2	42,4	45,7	49,1	52,3	55,8
Toʻraqoʻrgʻon	28,3	30,1	32,6	35,4	37,9	41,0	44,3	47,6	50,8	54,1
Uychi	24,9	26,5	28,3	30,5	32,4	34,9	37,4	39,8	42,2	45,0
Uchqoʻrgʻon	26,2	27,9	30,1	32,6	35,0	37,7	40,6	43,4	46,2	49,0
Chortoq	27,8	29,5	31,8	34,3	36,8	39,7	42,8	46,0	49,2	52,6
Chust	31,2	33,5	36,4	39,8	42,6	46,1	49,7	53,4	57,0	60,5
Yangiqoʻrgʻon	23,6	25,0	26,9	29,0	31,1	33,5	36,2	38,9	41,5	44,1

1-jadval natijalari 2016-2025-yillarda Namangan viloyati shahar va tumanlarida korporativ innovatsion salohiyatning ijobiy dinamikaga ega boʻlganini, biroq ushbu oʻsish hududlar boʻyicha bir maromda kechmaganini koʻrsatadi. Namangan shahrida indeks 2016-yildagi 42,1 balldan 2025-yilda 76,4 ballga yetib, 10 yillik davrda 34,3 ballga oshgan. Chust tumanida oʻsish 31,2 balldan 60,5 ballgacha, yaʼni 29,3 ballni; Pop tumanida 29,6 balldan 55,8 ballgacha, yaʼni 26,2 ballni; Toʻraqoʻrgʻonda 28,3 balldan 54,1 ballgacha, yaʼni 25,8 ballni tashkil etgan. Shu bilan birga, Norin tumanida yakuniy koʻrsatkich 36,6 ball, Mingbuloqda 38,4 ball, Yangiqoʻrgʻonda 44,1 ball

<sup>1</sup> Manba: Namangan viloyati Statistika boshqarmasi maʼlumotlari asosida muallif ishlanmasi

darajasida qolgan. 2025-yilda eng yuqori ko'rsatkichga ega Namangan shahri bilan eng past ko'rsatkichga ega Norin tumani o'rtasidagi farq 39,8 ballni tashkil etgani hududiy innovatsion salohiyatda sezilarli nomutanosiblik mavjudligini anglatadi.

Ushbu holat korporativ innovatsion salohiyatning shakllanishi tasodifiy jarayon emas, balki hududiy iqtisodiy zichlik, ishlab chiqarish diversifikatsiyasi, institutsional xizmatlar sifati, kapitalga kirish imkoniyati va bozor aloqalarining rivojlanganlik darajasi bilan bevosita bog'liq tizimli jarayon ekanini ko'rsatadi. Namangan shahri yuqori indeksga ega bo'lishi uning ma'muriy-boshqaruv, moliyaviy, ta'limiy va xizmat ko'rsatish markazi sifatidagi funksional ustunliklari bilan izohlanadi. Chust, Pop, To'raqo'rg'on va Chortoq tumanlaridagi nisbatan yuqori o'sish esa ushbu hududlarda sanoat kooperatsiyasi, kichik biznes faolligi va bozor talabi asta-sekin kuchayib borayotganidan dalolat beradi. Aksincha, Norin va Mingbuloq tumanlaridagi past ko'rsatkichlar innovatsion rivojlanishning asosiy cheklovi mablag' yetishmasligidan ham ko'ra chuqurroq - ishlab chiqarish bazasining torligi, texnologik yangilanishga talabning sustligi va korporativ innovatsion ekotizimning yetarli shakllanmaganligi bilan bog'liq.

## 2-jadval

### Namangan viloyati shahar va tumanlarida institutsional muhit sifati indeksi<sup>1</sup>

Hududlar	Yillar									
	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Namangan shahri	48,0	50,5	53,2	56,0	58,4	61,3	64,7	67,9	70,4	73,1
Namangan tumani	38,5	40,2	42,4	44,8	47,0	49,6	52,1	54,7	57,0	59,6
Mingbuloq	34,1	35,6	37,3	39,2	41,0	43,2	45,5	47,6	49,8	52,0
Kosonsoy	36,8	38,5	40,6	42,9	45,1	47,6	50,0	52,5	54,9	57,3
Norin	33,6	35,0	36,8	38,6	40,4	42,3	44,6	46,8	49,0	51,2
Pop	39,7	41,5	43,8	46,3	48,6	51,4	54,0	56,7	59,1	61,8
To'raqo'rg'on	39,0	40,8	43,0	45,4	47,8	50,5	53,2	55,8	58,4	60,9
Uychi	36,0	37,6	39,6	41,8	43,9	46,2	48,7	51,0	53,5	55,9
Uchqo'rg'on	37,4	39,1	41,2	43,5	45,8	48,4	51,0	53,5	56,0	58,5
Chortoq	38,8	40,5	42,7	45,0	47,3	49,9	52,6	55,2	57,8	60,3
Chust	41,3	43,3	45,9	48,6	51,0	54,0	56,8	59,6	62,3	65,0
Yangiqo'rg'on	35,2	36,8	38,7	40,8	42,9	45,2	47,6	49,9	52,2	54,6

2-jadval ma'lumotlari Namangan viloyati hududlarida 2016-2025-yillar davomida institutsional muhit sifati barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lganini ko'rsatadi. Namangan shahrida institutsional muhit indeksi 2016-yildagi 48,0 balldan 2025-yilda 73,1 ballga yetib, 25,1 ballga oshgan. Chust tumanida ushbu ko'rsatkich 41,3 balldan 65,0 ballga, Pop tumanida 39,7 balldan 61,8 ballga, To'raqo'rg'on 39,0 balldan 60,9 ballga, Chortoq tumanida esa 38,8 balldan 60,3 ballga ko'tarilgan. Shu bilan birga, Norin tumanida yakuniy indeks 51,2 ball, Mingbuloqda 52,0 ball va Yangiqo'rg'on 54,6 ball darajasida shakllangan. 2025-yilda Namangan shahri bilan Norin tumani o'rtasidagi tafovut 21,9 ballni tashkil etgani hududlar bo'yicha

<sup>1</sup> Manba: Namangan viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

institutsional rivojlanish darajasi sezilarli farqlanishini ko'rsatadi. Ayniqsa, 2020-yildan keyingi davrda barcha hududlarda indekslarning tezroq o'sishi iqtisodiy liberallashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va raqamlashtirish jarayonlarining kuchayishi bilan izohlanadi.

Mazkur natijalar institutsional muhit korporativ innovatsion salohiyatning shakllanishida fundamental determinant ekanini tasdiqlaydi. Kuchli institutsional tizim korxonalar uchun huquqiy barqarorlik, shartnomaviy ishonch, moliyaviy resurslarga kirish, davlat xizmatlaridan foydalanish va investitsion xavfsizlikni ta'minlaydi. Namangan shahri hamda Chust, Pop va To'raqo'rg'on tumanlaridagi yuqori ko'rsatkichlar ushbu hududlarda biznes yuritish muhiti, boshqaruv samaradorligi va iqtisodiy infratuzilma nisbatan rivojlanganini anglatadi. Aksincha, Norin va Mingbuloq tumanlarida indeksning pastligi innovatsion rivojlanishni cheklayotgan asosiy omillar institutsional servislarning zaifligi, bozor infratuzilmasining torligi va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining yetarli ishlamayotganini ko'rsatadi. Demak, innovatsion salohiyatni oshirish uchun faqat investitsiya hajmini ko'paytirish yetarli emas; hududiy institutsional muhit sifatini oshirish, biznes uchun ishonchli va barqaror iqtisodiy makon yaratish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

### 3-jadval

#### Namangan viloyati shahar va tumanlarida bozor raqobati intensivligi indeksi<sup>1</sup>

Hududlar	Yillar									
	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Namangan shahri	52,4	55,0	58,1	61,5	64,0	67,2	70,5	73,6	76,1	78,8
Namangan tumani	40,6	42,3	44,7	47,2	49,5	52,0	54,5	57,0	59,4	61,9
Mingbuloq	32,8	34,2	36,0	38,0	39,8	42,0	44,1	46,3	48,4	50,5
Kosonsoy	37,6	39,2	41,4	43,8	46,0	48,4	50,8	53,1	55,5	57,9
Norin	31,9	33,2	35,0	36,8	38,6	40,6	42,8	44,9	47,0	49,0
Pop	42,0	44,0	46,6	49,4	51,9	54,8	57,6	60,3	63,0	65,8
To'raqo'rg'on	41,1	43,0	45,5	48,2	50,7	53,5	56,3	59,0	61,7	64,3
Uychi	36,2	37,8	39,9	42,1	44,2	46,5	48,9	51,2	53,5	55,8
Uchqo'rg'on	38,4	40,1	42,4	44,9	47,2	49,8	52,4	54,9	57,4	59,9
Chortoq	40,2	42,0	44,4	47,0	49,4	52,1	54,8	57,4	60,0	62,7
Chust	44,7	46,8	49,6	52,5	55,1	58,2	61,2	64,2	67,0	69,8
Yangiqo'rg'on	35,1	36,6	38,6	40,8	42,9	45,2	47,6	49,9	52,2	54,5

3-jadval natijalari 2016-2025-yillar davomida Namangan viloyati hududlarida bozor raqobati intensivligi bosqichma-bosqich kuchayganini ko'rsatadi. Eng yuqori ko'rsatkich Namangan shahrida qayd etilib, indeks 2016-yildagi 52,4 balldan 2025-yilda 78,8 ballga yetgan va umumiy o'sish 26,4 ballni tashkil etgan. Chust tumanida ushbu ko'rsatkich 44,7 balldan 69,8 ballga, Pop tumanida 42,0 balldan 65,8 ballga, To'raqo'rg'on tumanida 41,1 balldan 64,3 ballga, Chortoqda esa 40,2 balldan 62,7 ballga oshgan. Shu bilan birga, Norin tumanida 2025-yil yakunida indeks 49,0 ball, Mingbuloqda 50,5 ball va Yangiqo'rg'on tumanida 54,5 ball darajasida shakllangan. 2025-

<sup>1</sup> Manba: Namangan viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

yilda Namangan shahri va Norin tumani o'rtasidagi tafovut 29,8 ballni tashkil etgani hududiy raqobat muhiti rivojlanishida jiddiy differentsiallasuv mavjudligini ko'rsatadi. Ayniqsa, 2019-2025-yillarda ko'rsatkichlarning tezroq o'sishi iqtisodiy liberallasuv, yangi korxonalar sonining ortishi va xususiy sektor faolligining kuchayishi bilan bog'liq.

Mazkur holat bozor raqobati korporativ innovatsion salohiyatning eng muhim tashqi drayverlaridan biri ekanini tasdiqlaydi. Raqobat muhiti kuchaygan hududlarda korxonalar ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, mahsulot sifatini oshirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va boshqaruv samaradorligini yaxshilashga majbur bo'ladi. Namangan shahri, Chust, Pop va To'raqo'rg'on tumanlaridagi yuqori ko'rsatkichlar ushbu hududlarda korxonalar zichligi, iste'mol bozori hajmi va sanoat kooperatsiyasi nisbatan rivojlanganini anglatadi. Aksincha, Norin va Mingbuloq tumanlarida raqobat intensivligining pastligi iqtisodiy subyektlar sonining cheklanganligi, ishlab chiqarish diversifikatsiyasining sustligi hamda bozorga kirish imkoniyatlarining torligi bilan izohlanadi. Eng muhim jihat shundaki, past raqobat muhiti innovatsion bosimni kamaytiradi va korxonalarini texnologik modernizatsiyaga yetarlicha undamaydi. Shu sababli hududiy innovatsion siyosatda raqobatni rivojlantirish institutsional islohotlar bilan parallel ravishda olib borilishi zarur.

#### 4-jadval

#### Namangan viloyati shahar va tumanlarida institutsional muhit va raqobatning komplementar ta'siri natijasida innovatsion o'sish koeffitsiyenti<sup>1</sup>

Hududlar	Yillar									
	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Namangan shahri	1,00	1,08	1,16	1,25	1,32	1,42	1,52	1,63	1,72	1,82
Namangan tumani	1,00	1,06	1,13	1,21	1,28	1,36	1,44	1,53	1,61	1,70
Mingbuloq	1,00	1,05	1,11	1,18	1,24	1,32	1,39	1,47	1,55	1,63
Kosonsoy	1,00	1,06	1,13	1,20	1,28	1,36	1,44	1,52	1,60	1,68
Norin	1,00	1,05	1,10	1,16	1,23	1,30	1,38	1,45	1,53	1,61
Pop	1,00	1,06	1,15	1,24	1,32	1,43	1,54	1,66	1,77	1,89
To'raqo'rg'on	1,00	1,06	1,14	1,23	1,31	1,41	1,52	1,63	1,74	1,85
Uychi	1,00	1,06	1,13	1,21	1,28	1,37	1,46	1,55	1,64	1,74
Uchqo'rg'on	1,00	1,06	1,15	1,24	1,34	1,44	1,55	1,66	1,76	1,87
Chortoq	1,00	1,06	1,14	1,23	1,32	1,43	1,54	1,65	1,77	1,89
Chust	1,00	1,07	1,17	1,28	1,37	1,48	1,59	1,71	1,83	1,94
Yangiqo'rg'on	1,00	1,06	1,12	1,20	1,28	1,36	1,45	1,54	1,63	1,72

4-jadval ma'lumotlari Namangan viloyati hududlarida institutsional muhit va bozor raqobatining komplementar ta'siri natijasida innovatsion o'sish koeffitsiyenti 2016-2025-yillar davomida izchil oshib borganini ko'rsatadi. 2016-yil bazaviy 1,00 birlik sifatida olinganda, 2025-yilda eng yuqori natija Chust tumanida 1,94 koeffitsiyent bilan qayd etilgan. Pop va Chortoq tumanlarida ko'rsatkich 1,89,

<sup>1</sup> Manba: Namangan viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Uchqo'rg'onda 1,87, To'raqo'rg'onda 1,85 va Namangan shahrida 1,82 darajasiga yetgan. Eng past natijalar Norin tumanida 1,61 va Mingbuloqda 1,63 koeffitsiyent bilan kuzatilgan. Bu ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, ayrim hududlarda institutsional muhit va raqobat omillari innovatsion rivojlanishni sezilarli tezlashtirgan bo'lsa, boshqa hududlarda ushbu omillarning samaradorligi nisbatan past bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, Chust tumanining 10 yillik davrda 0,94 birlik o'sishga erishgani hududda raqobat muhiti va institutsional islohotlarning bir-birini qo'llab-quvvatlovchi sinergik ta'siri kuchli shakllanganini ko'rsatadi.

Mazkur natijalar innovatsion rivojlanishning alohida omillar emas, balki o'zaro bog'liq institutsional va bozor mexanizmlari asosida shakllanishini tasdiqlaydi. Agar institutsional muhit rivojlangan, biroq raqobat sust bo'lsa, korxonalar innovatsiyaga yetarli darajada majbur bo'lmaydi; aksincha, kuchli raqobat mavjud bo'lib, institutsional tizim zaif bo'lsa, innovatsion faoliyat yuqori tavakkalchilik va transaksion xarajatlar sababli cheklanadi. Chust, Pop, Chortoq va To'raqo'rg'on tumanlaridagi yuqori koeffitsiyentlar aynan ushbu ikki omilning parallel rivojlanganini ko'rsatadi. Norin va Mingbuloq tumanlarida esa innovatsion o'sishning sekinligi bozor hajmi, korporativ tarmoqlar va institutsional xizmatlarning yetarlicha shakllanmaganligi bilan izohlanadi. Demak, hududiy innovatsion siyosatda faqat investitsiya yoki texnologik modernizatsiyani emas, balki institutsional sifat va raqobat muhitini birgalikda rivojlantirish strategik ustuvor yo'nalish bo'lishi kerak.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari Namangan viloyati shahar va tumanlari misolida korporativ tuzilmalarda innovatsion salohiyatni rivojlantirish institutsional muhit sifati va bozor raqobati intensivligi bilan bevosita bog'liq ekanini ko'rsatdi. 2016-2025-yillar bo'yicha tuzilgan tahliliy jadvallar innovatsion salohiyatning barcha hududlarda o'sganini, biroq o'sish sur'atlari bir xil emasligini tasdiqlaydi. Demak, viloyatda innovatsion rivojlanish tabiiy ravishda emas, balki institutsional sharoit, korxonalar zichligi, raqobat bosimi, ishlab chiqarish diversifikatsiyasi va hududiy infratuzilma sifati bilan belgilanmoqda.

Birinchiidan, korporativ innovatsion salohiyat indeksi Namangan shahrida 2016-yildagi 42,1 balldan 2025-yilda 76,4 ballga yetib, 34,3 ballga oshgan. Chust tumanida ushbu ko'rsatkich 31,2 balldan 60,5 ballga, Popda 29,6 balldan 55,8 ballga, To'raqo'rg'onda 28,3 balldan 54,1 ballga ko'tarilgan. Biroq Norinda 2025-yil yakuniy ko'rsatkichi 36,6 ball, Mingbuloqda 38,4 ball darajasida qolgan. Bu holat innovatsion salohiyatning hududiy markazlashuvga moyilligini ko'rsatadi. Ilmiy taklif sifatida Namangan shahrini yagona innovatsion markaz sifatida emas, balki Chust, Pop, Chortoq va To'raqo'rg'on bilan bog'langan ko'p markazli innovatsion tizim sifatida rivojlantirish zarur.

Ikkinchiidan, institutsional muhit sifati indeksida ham sezilarli tafovut mavjud: Namangan shahrida ko'rsatkich 48,0 balldan 73,1 ballga, Chustda 41,3 balldan 65,0 ballga, Popda 39,7 balldan 61,8 ballga oshgan bo'lsa, Norinda u 51,2 ball, Mingbuloqda 52,0 ball bilan nisbatan past darajada qolgan. Bu natija shuni anglatadiki, ayrim tumanlarda innovatsion rivojlanishni cheklayotgan omil faqat moliyaviy resurs

yetishmasligi emas, balki biznes servislarning sustligi, huquqiy maslahat, kooperatsiya, loyiha tayyorlash va bozorga chiqish mexanizmlarining zaifligidir. Amaliy tavsiya sifatida har bir tumanda “innovatsion biznes-servis markazlari”ni tashkil etish, ular orqali korxonalariga patentlash, grant olish, texnologik audit, eksportga tayyorlash va raqamli boshqaruv bo‘yicha xizmat ko‘rsatish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, bozor raqobati intensivligi Namangan shahrida 52,4 balldan 78,8 ballga, Chustda 44,7 balldan 69,8 ballga, Popda 42,0 balldan 65,8 ballga oshgan. Shu bilan birga, Norinda 49,0 ball, Mingbuloqda 50,5 ball ko‘rsatkichi raqobat bosimi yetarli emasligini bildiradi. Bu yerda eng keskin xulosa shuki: raqobat past bo‘lgan hududlarda korxonalar innovatsiyaga majbur bo‘lmaydi, natijada mahsulot sifati, texnologik yangilanish va boshqaruv samaradorligi sust qoladi. Shu sababli tumanlarda bozorga kirish to‘siqlarini kamaytirish, kichik va o‘rta biznes subyektlari sonini oshirish, davlat xaridlarida mahalliy innovatsion korxonalar ishtirokini kengaytirish hamda monopolistik ustunliklarning oldini olish zarur.

To‘rtinchidan, institutsional muhit va bozor raqobatining komplementar ta‘siri innovatsion o‘rishni tezlashtiruvchi asosiy mexanizm sifatida namoyon bo‘ldi. 2025-yilda komplementar ta‘sir koeffitsiyenti Chustda 1,94, Pop va Chortoqda 1,89, Uchqo‘rg‘onda 1,87, To‘raqo‘rg‘onda 1,85, Namangan shahrida 1,82 ni tashkil etdi. Bu shuni ko‘rsatadiki, ayrim tumanlarda mutlaq innovatsion salohiyat Namangan shahridan past bo‘lsa-da, o‘rish zaxirasi yuqori. Ilmiy jihatdan bundan kelib chiqadigan xulosa: innovatsion siyosat faqat yuqori salohiyatli markazlarni qo‘llab-quvvatlashga emas, balki o‘rish sur‘ati yuqori bo‘lgan tumanlarda institutsional va raqobat omillarini bir vaqtda kuchaytirishga yo‘naltirilishi kerak.

Beshinchidan, Namangan viloyatida innovatsion rivojlanishning asosiy muammosi “resurs yetishmasligi” emas, balki resurslarni samarali harakatga keltiruvchi institutsional-raqobat mexanizmlarining to‘liq shakllanmaganligidir. Shuning uchun amaliy tavsiyalar quyidagilardan iborat: tumanlar kesimida innovatsion salohiyat monitoringini joriy etish; sanoat korxonalari, oliy ta‘lim muassasalari va ilmiy tashkilotlar o‘rtasida doimiy kooperatsion platforma yaratish; past indeksli tumanlarda texnologik modernizatsiya dasturlarini alohida moliyalashtirish; Chust-Pop-Chortoq-To‘raqo‘rg‘on yo‘nalishida sanoat-innovatsion klasterlar shakllantirish; Namangan shahrining ilmiy, moliyaviy va boshqaruv salohiyatini periferik tumanlarga uzatuvchi hududiy innovatsion tarmoqni yaratish.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. World Intellectual Property Organization. Global Innovation Index 2024. Geneva: WIPO, 2024.
2. OECD. Competition, Innovation and Productivity Growth. OECD Publishing.
3. World Bank. Uzbekistan Country Economic Memorandum, 2025.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son “2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-6102462>

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
6. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 3-iyuldagi O‘RQ-850-son “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonuni <https://lex.uz/uz/docs/-6518381>
7. North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge University Press, Cambridge, 1990.
8. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. Free Press, New York, 1990.
9. Schumpeter J.A. Capitalism, Socialism and Democracy. Harper & Brothers Publishers, New York, 1942.
10. Nelson R.R., Winter S.G. An Evolutionary Theory of Economic Change. Harvard University Press, Cambridge, 1982.
11. Freeman C. Technology Policy and Economic Performance: Lessons from Japan. Pinter Publishers, London, 1987.
12. Romer P.M. “Endogenous Technological Change.” Journal of Political Economy, Vol. 98, No. 5, University of Chicago Press, 1990, pp. 71-102.
13. Williamson O.E. The Economic Institutions of Capitalism. Free Press, New York, 1985.
14. Cohen W.M., Levinthal D.A. “Absorptive Capacity: A New Perspective on Learning and Innovation.” Administrative Science Quarterly, Vol. 35, No. 1, Cornell University, 1990, pp. 128-152.
15. Teece D.J., Pisano G., Shuen A. “Dynamic Capabilities and Strategic Management.” Strategic Management Journal, Vol. 18, No. 7, Wiley, 1997, pp. 509-533.
16. Vahobov A., Toshmurodova D. Innovatsion iqtisodiyot va institutsional rivojlanish masalalari. Toshkent: “IQTISOD-MOLIYA” nashriyoti, 2021.



# Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhih:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2026-yil, may, 5-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Bot:

[@marketingjournalbot](https://t.me/@marketingjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**